

LOTIN TILI FE'L SO'Z TURKUMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Usmonova Dilyayra Rustamovna
Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti
2-son O'zbek va xorijiy tillari
kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida lotin tilini chuqurlashtirilgan holda o'qitish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Quydagi maqolada lotin tilini o'zlashtirishda muhim o'rin tutuvchi fe'l so'z turkumi borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: tibbiyot, lotin tili, fe'l, grammatik kategoriya, zamon, mayl, nisbat, tuslanish.

Hozirgi kunda mamlakatimizda oliy ta'lim tizimiga e'tibor tobora kuchayib bormoqda. Shunga ko'ra, oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari – zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish borasida strategik vazifalar belgilab olingan.

Mazkur vazifalar sohada mavjud muammolarni bartaraf etishga, sohani zamonaviy standartlar darajasida tashkillashtirishga qaratilgan bo'lib, unga ko'ra ta'limni rivojlantirish, yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish, yangi avlod kadrlarini tayyorlashga jiddiy e'tibor qaratish talab etiladi. Bundan ko'zlangan maqsad o'qitish jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari va didaktik modellarni rivojlantirish va ulardan samarali foydalanish orqali ta'limni raqamli tizimga moslashtirishdir.

Shu nuqtai nazardan, institutimizda tillarni, jumladan lotin, tilini o'qitish masalasini yanada rivojlantirish taqazo etiladi. Zero, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida lotin tilini chuqurlashtirilgan holda o'qitish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, lotin tilini o'qitilishi va uni tibbiyot xodimlariga o'rgatilishi dolzarb masala hisoblanib, quyida mazkur yo'nalishda chuqur o'rganishni talab qiladigan fe'l (Verbum) so'z turkumi borasida so'z yuritiladi.

Lotin tiliga mansub manbalarda predmetning ish-harakati yoki holatini ifodalovchi so'zlar fe'l deb atalishi qayd etilgan.

Masalan: *curare* – davolamoq; *amare* – sevmok; *legere* – o'qimoq va boshq.

Lotin tilida fe'llar o'zbek tilidagi kabi shaxs, son, va zamonda o'zgaradi. Fe'l 3 ta shaxs, 2 ta son (birlik va ko'plik), 6 ta zamon, 4 ta mayl va 4 ta tuslanishga ega.

Fe'llarning tuslanishi o'zakdagi so'nggi unli bilan bir-biri bilan farq qiladi.

Lotin tilida fe'llar to'rt xil turda tuslanadi. Birinchi turda tuslanuvchi fe'llarning o'zagi **-a** unlisi bilan tugallanadi: *dare (da)* – *bermoq*. Ikkinchi turda tuslanuvchi fe'llarning o'zagi **-e** unlisi bilan tugallanadi: *miscere (misce)* – *aralashtirmoq*. Uchinchi turda tuslanuvchi fe'llarning o'zagi undosh yoki **-u** bilan tugallanadi: *solvere (solv)* – *eritmoq*. To'rtinchi turda tuslanuvchi fe'llarning o'zagi esa **-i** unlisi bilan tugaydi: *audire (audi)* – *eshitmoq*. Agar birinchi, ikkinchi va to'rtinchi turda tuslanuvchi fe'llardan noaniq shakldagi **-re**, uchinchi turda tuslanishga kiruvchi fe'llardan esa **-ere** qo'shimchalari olib tashlansa, fe'lning negizi hosil bo'ladi. Masalan:

Tuslanish	Fe'lning noaniq shakli	Fe'l negizi
I	dare – bermoq	da
II	miscere – aralashtirmoq	misce
III	solvere – eritmoq	solv
IV	audire – eshitmoq	audi

Lotin tilida fe'llar xuddi o'zbek tilidagidek birlik (singularis) va ko'plik (pluralis) shaklda tuslanadi. Lotin tilida fe'lning uchta mayli mavjud: Indicativus – aniqlik mayli; Imperativus – buyruq mayli; Conjunctivus – shart mayli.

Aniqlik mayli (Indicativus) ish-harakati yoki holatining aniqligini ko'rsatadi. Masalan: *Medicus aegrotam curat* – *Shifokor bemorni davolayapti*.

Buyruq mayli (Imperativus) buyurish, so'rash, iltimos kabi ma'nolarni ifodalab, odatda ikkinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi. Buyruq mayli birlik sonini hosil qilishi uchun fe'lning noaniq shaklidan **-re** qo'shimchasini olib tashlash kerak. Masalan:

Tuslanish	Fe'lning noaniq shakli	Fe'l negizi	Buyruq mayli birlik soni
I	dare – bermoq	da	da – ber!
II	miscere – aralashtirmoq	misce	misce – aralashtir!
III	solvere – eritmoq	solv	solve – erit!
IV	audire – eshitmoq	audi	audi – eshit!

Buyruq mayli ko'plik sonini hosil qilish uchun fe'lning buyruq mayli birlik soniga **-te**, faqat uchinchi tuslanish negiziga **-ite** qo'shimchasini qo'shish kerak. Masalan:

Tuslanish	Fe'lning noaniq shakli	Fe'l negizi	Buyruq mayli ko'plik soni
I	dare – bermoq	da	date – bering!
II	miscere – aralashtirmoq	misce	miscete – aralashtiring!
III	solvere – eritmoq	solv	solvite – eriting!
IV	audire – eshitmoq	audi	audite – eshiting!

Lotin tilida shart mayli (Conjunctivus) o‘zbek tilidagi kabi ish-harakatining ma’lum bir sharoitda bo‘lishi mumkin ekanligini bildiradi. Masalan:

Misceatur – Aralashtirilsin! Aralashtirilgan bo‘lsin!

Signetur – Bildirilsin! Bildirilgan bo‘lsin!

Detur – Berilsin! Berilgan bo‘lsin!

Ma’lumki, tibbiyotda retseptlar lotin tilida yozilishi lozim. Retseptlarda fe’llarning shart mayli uchinchi shaxs birlik va ko‘plik sonlarida ishlatiladi:

Dividatur in partes aequales – teng qismlarga bo‘linsin!

Dentur tales doses numero... – shunday miqdor (son) ...da berilsin!

Shuningdek, lotin tili fe’llarining ikkita nisbati mavjud: aniqlik nisbati (activum) va majhullik nisbati (passivum).

Fe’ning aniqlik nisbatida (Activum) ish-harakat shaxs tomonidan bajariladi, to‘ldiruvchi esa harakatning obyekti bo‘ladi. Aniqlik nisbati uchinchi shaxs birlik sonini hosil qilish uchun fe’l negiziga **-t**, ko‘plik sonini hosil qilish uchun esa **-nt** qo‘shimchasini qo‘shish lozim.

Masalan: *Medicus aegrotam curat – Shifokor bemorni davolayapti.*

Majhullik nisbatida harakat to‘ldiruvchi anglatgan predmet tomonidan bajarilib, haqiqiy bajaruvchisi noma’lum bo‘ladi. Majhullik nisbati uchinchi shaxs birlik sonini hosil qilish uchun fe’l negiziga **-tur**, ko‘plik sonida esa **-ntur** qo‘shimchasini qo‘shish, kerak.

Masalan: *Aegrotus ab medicis curantur – Bemor shifokorlar tomonidan davolansin.*

Esse – bor bo‘lmoq yordamchi fe’lining hozirgi zamon uchinchi shaxsda tuslanishi.

Birlik (Singularis)

Ko‘plik (Pluralis)

est – y bor

sunt – ular borlar

Zincum metallum est – Ryx – metallidir.

Argentum et Zincum metalla sunt – Kumush va pyx – metallardir.

Shuningdek, lotin tilida Fiat, fiant fe’lining retseptlarda qo‘llanilishi alohida ahamiyatga ega. Uchinchi shaxs birlik soni shart fe’li fiat – qilinsin va uchinchi shaxs ko‘plik soni shart fe’li fiant – tayyorlansin, fio, fieri – qilmoq, hosil bo‘lmoq fe’lidan yasalgan. Masalan:

Misce, fiat pulvis — aralashtirib kukun hosil qilinsin;

Misce, fiat unguentum – aralashtirib surtma xosil qilinsin;

Misce, fiat pilulae – aralashtirib hab dori tayyorlansin.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, lotin tilini o‘zlashtirishda fe’l so‘z turkumini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Yuqorida keltirilgan misollardan anglanadiki, fe’l so‘z turkumi lotin tili va tibbiy terminologiya asoslari fani bo‘yicha og‘zaki va yozma ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chernyavskiy M.N. Latinskiy yazik i osnovi meditsinskoy terminologii. Izdaniye tretye, ispravlennoye i dopolnennoye. – Moskva: SHIKO, 2007.
2. Xo‘jayeva L.U. Lotin tili. Tibbiyot o‘quv adabiyoti. -Toshkent: O‘ME Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
3. Tananushko K.A. Uchebnik latinskogo yazika. Lingua Latina. –Minsk: Xarvest, 2007.
4. Dvoretzkiy I.X. Latinsko-russkiy slovar. –Moskva: Russkiy yazik, 1976.

